

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

6-2024

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

H.H.Бобожонов, Г.Г.Козлова

8 yoshdan 10 yoshgacha bo'lgan bolalarda qo'shma ta'sir qilish usuli yordamida harakatni muvofiqlashtirish ko'nikmalarini yaxshilash 111

D.T.Abduraimov

Talabalar hayoti sifatini yaxshilashda atletik gimnastika vositalaridan foydalanishning samaradorligi..... 116

F.M.Mamadova

Bo'lajak jismoniy madaniyat o'qituvchilarining pedagogik madaniyati va kompetensiyasini rivojlantirish mexanizimi 121

M.M.Yuldashov

Ayollar organizmini jismoniy mashqlarga reaksiya qilishida hududiy omillarning ahamiyati 125

N.J.Madaminova

Maktabgacha ta'limda ingliz tilini o'rganish uchun geymifikatsiya texnologiyalaridan foydalanish: samaradorlik va natijalar tahlili 129

S.M.Sidikov

Maktabgacha va kichik maktab yoshidagi bolalarning jismoniy rivojlanishini nazorat qilish modernizatsiya..... 133

S.B.Erkinova

Oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan talabalarning kognitiv faoliyatini tuzilishi va turlari 139

IQTISODIYOT**M.R.Dadashzade**

Administration of the production areas based on innovative technology..... 143

FALSAFA**I.M.Arzimatova**

O'zbekistonda modernizatsiya jarayonlari va rahbar kadrlar faoliyati..... 148

F.A.Yuldashev

Axborotlashgan jamiyatda ehtiyoj va manfaat kategoriyasining namoyon bo'lishi (ijtimoiy-falsafiy tahlil) 153

Sh.Ismatov

Yangi O'zbekistonda ma'rifiy jamiyat barpo etishning nazariy asoslari 158

B.B.Asqarov

Dizayn fikrlashda empatiya bosqichining pedagogikadagi roli 161

I.A.Asatulloev

Alfred adlarning qalb konsepsiyasida inson barkamolligi omillari..... 164

O.Ortiqov

Mustaqillik davrida ijtimoiy-falsafiy tadqiqotlar tahlili (1990-1994 yillar)..... 172

A.M.Nurmuxammadjonov

Ijtimoiy rivojlanish jarayonida yoshlar musiqiy tafakkurini rivojlantirishning istiqboldagi vazifalari..... 175

A.A.Sayitxonov

Ilmiy qadriyatlarining inson axloqiy va ma'naviy yuksalishiga ta'siri..... 188

SIYOSAT**A.Leyla**

Xitoy Xalq Respublikasining Markaziy Osiyo mintaqasidagi geosiyosiy manfaatlari 191

S.N.Abdullayev

Huquqiy ong masalasiga falsafiy yondashuvning o'ziga xos xususiyatlari 196

TARIX**Sh.M.Abdusatorov**

Jizzax vohasi an'anaviy taomlarining gastroturizmni rivojlantirish bosqichidagi o'rni va ahamiyati (Forish tumani misolida)..... 199



UO'K: 796.011.03.373

MAKTABGACHA VA KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI BOLALARNING JISMONIY RIVOJLANISHINI NAZORAT QILISH MODERNIZATSIYA**МОДЕРНИЗАЦИЯ НАБЛЮДЕНИЯ ЗА ФИЗИЧЕСКИМ РАЗВИТИЕМ ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНИКОВ И МЛАДШИХ ШКОЛЬНИКОВ****MODERNIZATION OF MONITORING THE PHYSICAL DEVELOPMENT OF PRESCHOOL AND PRIMARY SCHOOL CHILDREN****Sidikov Sobir Mamasoliyevich** 

Farg'ona davlat universiteti Biologiya fanlari nomzodi, dotsent

Annotatsiya

Maqolada jismoniy tarbiya mashg'ulotlari jarayonida o'quvchilarning jismoniy rivojlanishiga qaratilgan innovatsion usullarni joriy etish, shuningdek, eksperimental natijalari taqdim etilgan bo'lib, o'quvchi-yoshlarning antropometrik, jismoniy rivojlanganlik ko'rsatkichlari tahlil qilingan. Tajriba davomida o'g'il bolalar va qizlarning jismoniy rivojlanganligi tajriba va nazorat guruhlarida atroflicha o'rganilgan.

Аннотация

В статье представлено внедрение инновационных методов, направленных на физическое развитие учащихся в процессе физкультурной деятельности, а также результаты экспериментов, проанализированы показатели антропометрического, физического развития учащихся-молодежи. В ходе эксперимента детально изучалось физическое развитие мальчиков и девочек в экспериментальной и контрольной группах.

Abstract

The article presents the introduction of innovative ussus aimed at the physical development of students in the process of physical education training, as well as experimental results, and analyzes the indicators of anthropometric, physical development of students-young people. During the experiment, the physical development of boys and girls was thoroughly studied in experimental and control groups.

Kalit so'zlar: Zamonaviylashtirish, monitoring, dvigatel qobiliyatlar, sensitiv davr, pedagogik test, korelyasiya munosabatlari, innovatsion texnologiyalar.

Ключевые слова: Модернизация, мониторинг, двигательные способности, чувствительный период, педагогическое тестирование, корреляционная взаимосвязь, инновационная технология.

Key words: Modernization, monitoring, motor abilities, sensitive period, pedagogical testing, correlation relationship, innovative technology.

KIRISH

Jahonda erta va maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama rivojlantirish strategiyalarini ishlab chiqish va uni amalga oshirish metodikalarini loyihalashtirishga doir qator izlanishlar amalga oshirilmoqda. Bunda bolalarni jismoniy rivojlantirish va ularda sog'lom turmush tarzini shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayonlarni tashkil etishga alohida e'tibor berilib, maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyalanuvchilarining yosh va psixofiziologik xususiyatlarini hisobga olgan holda ularda tayanch kompetensiyalarni shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday yondashuv shaxsga yo'naltirilgan ta'lim strategiyasi talablari asosida bolalarni jismoniy rivojlantirish va ularda sog'lom turmush tarzini shakllantirish jarayonining samarali shakllari va usullarini joriy etish, pedagoglarning innovatsion faoliyati ko'lami darajasini kengaytirish, ularning kasbiy kompetentligini rivojlantirish masalalariga ustuvorlik berishni talab etmoqda.

Ushbu tadqiqot O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son "2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida", 2017 yil 30 sentyabrdagi PF-5198-son "Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish to'g'risida"gi farmonlari, 2018-yil 30 sentyabrdagi PQ-3955 sonli "Maktabgacha ta'lim tizimini boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, qarorlari, O'zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentyabrdagi O'RQ-637-sonli "Ta'lim to'g'risida"gi, 2015 yil 4 sentyabrdagi O'RQ-394-son "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida"gi Qonunlari, shuningdek, mazkur sohalarga taalluqli bir

qator boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni hal etishga muayyan darajada xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Pedagogika fanining eng muhim vazifalaridan biri erta bolalik yoshidan boshlab jismoniy va ma'naviy jihatdan uyg'un holda rivojlangan, jismonan baquvvat yosh avlodni tarbiyalash hisoblanadi. Respublikamizning yetakchi olimlar R.A.Mavlonova, M.Maxkamov, M.I.Masharipova, O.Musurmonova, H.B.Tulenova, O.Hasanboyeva, B.X. Xodjaev, Sh.Sharipov va boshqalar tomonidan tadqiqotlarning umumiy pedagogik yo'nalishlari, M.S.Axmatov, T.I.Ismoilov, K.M.Mahkamjonov, E.A.Seytxalilov, Sh.X.Xankeldievlar jismoniy tarbiya asoslari bo'yicha nazariy bilimlar doirasida kompetentlik darajasini o'rganilganligi, F.A.Kerimov, R.S.Salomov, T.S.Usmonxodjaevlar tomonidan esa sport yo'nalishida asosiy nazariy kompetensiyalar tadqiq qilingan.

Mustaqil davlatlar hamdo'stligi (MDH) mamlakatlari olimlaridan M.P.Muxina, I.P.Podlasiy, V.A.Anderson, L.A.Viks, L.S.Jbanova, T.G.Xamaganova, I.F.Xarlamov kabi mutaxassislar maktabgacha ta'lim tizimi tarbiyalanuvchilarining umumta'lim tizimiga o'tib o'qish davri ijtimoiy va fiziologik jihatdan bolalar hayotidagi eng mas'uliyatli palla hisoblanishini ta'kidlashgan.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Maktabgacha yosh guruhi yoshidagi bolalar bilan olib boriladigan jismoniy tarbiya-sog'lomlashtirish ishlarini tashkil qilishda pedagogik texnologiyalarning qo'llanilishini tajribada tekshirish hamda ilmiy asoslash zarurati yuzaga kelmoqda. Bolalarni o'qitish va o'qish davrida ularda to'planib borayotgan toliqishni yo'qotishning samarali vositasi sifatida jismoniy faollikka bo'lgan mustahkam ehtiyojni tarbiyalash jarayonini tadqiq qilishni talab qiladi. Shu tufayli ushbu yosh guruhlaridagi bolalarning jismoniy rivojlanishi va harakat tayyorgarligini aniqlash hamda ularning jismoniy qobiliyatlarini tarbiyalashning samarali vositalari, shakllari va uslublarini tajriba yo'li bilan asoslash juda muhim hisoblanadi.

Pedagogik tajriba tadqiqotchidan yuksak pedagogik, metodologik madaniyat, tadqiqot dasturi hamda ta'lim jarayoni samaradorligini qayd etishga imkon beruvchi ishonchli mezon apparatini puxta ishlab chiqishni taqozo etadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, pedagogik tajribaning quyidagi modeli qo'llanildi. Avval tajriba va nazorat guruhlar ko'rsatkichlari tahlil qilindi, shuningdek, katta maktabgacha yoshdagi bolalar va kichik sinf o'quvchilarining tayyorgarligini baholash platformasi ishlab chiqildi, ta'lim muassasalari sharoitlarida jismoniy tarbiya-sog'lomlashtirish ishlarining ilmiy asoslangan hamda amaliyotga joriy etilgan uslubiyati mazmuni va tuzilmasi taqdim etiladi.

Pedagogik tajriba – tadqiqot uslubi bo'lib, u tadqiqot boshida qo'yilgan farazning ilmiy-obyektiv, daliliy tekshiruvini ta'minlaydi. U boshqa uslublarga qaraganda, ta'lim-tarbiya sohasidagi u yoki bu yangiliklarning samaradorligini chuqurroq tekshirishga, pedagogik jarayon tuzilmasiga turli xil omillarning ahamiyatini taqqoslashga, tegishli vaziyatlar uchun eng yaxshi (optimal) variantlarni tanlashga, ma'lum bir pedagogik vazifalarni amalga oshirish uchun zarur shart-sharoitlarni aniqlashga imkon yaratadi.

Pedagogik tajribani o'tkazish uchun 46 ta bolalardan iborat ikkita yosh guruhi tashkil qilindi: nazorat va tajriba guruhlar. Aytish muhimki, tekshiriluvchilarning ushbu miqdori tajribani boshqarishga imkon beradi. Ma'lumki, tekshiriluvchilar soni ko'p bo'lsa, tajribani o'tkazishda uni boshqarish samaradorligi qiyinlashadi. Tajriba oldiga qo'yilgan vazifalar va tekshiriluvchilar soni o'zaro uzviy bog'liq va bir-biriga ta'sir ko'rsatishi mumkin. Tajriba va nazorat guruhlarining qiyosiy ma'lumotlari 5-jadvalda berilgan.

Nazorat guruhlar namunaviy dastur asosida an'anaviy tizim bo'yicha shug'ullanishdi. Tajriba guruhidagi bolalar maktabgacha ta'lim muassasasi tarbiyachisi rahbarligida mashg'ulot o'tadilar, bunda tarbiyachi ushbu ta'lim tizimida katta pedagogik ish tajribasiga ega edi, kichik sinf o'quvchilari esa biz ishlab chiqqan uslubiyat bo'yicha oliy jismoniy tarbiya ma'lumotiga ega o'qituvchi rahbarligida shug'ullandi.

Pedagogik tajribani o'tkazish uchun tekshirilayotgan kontingent jismoniy rivojlanishi va harakat tayyorgarligining dastlabki darajasini aniqlash bo'yicha ilmiy asoslangan testlar batareyasi tanlab olindi.

Tadqiqotlarimiz ma'lumotlariga ko'ra, maktabgacha ta'lim muassasalarining katta yosh guruhidagi o'g'il bolalari, ya'ni 6 yoshdagi tajriba guruhi bolalarida tana uzunligi o'rtacha $115,6 \pm 3,2$

PEDAGOGIKA

smni tashkil qildi, nazorat guruhi bolalarida esa u o'rtacha $115,4 \pm 2,8$ smga teng bo'ldi. Tana uzunligi ko'rsatkichlaridagi ikkala guruh farqi 0,2 foizni tashkil qildi.

Tana og'irligi ko'rsatkichlari tajriba guruhining 6 yoshdagi bolalarida o'rtacha $19,2 \pm 0,9$ kgni, nazorat guruhida esa $19,5 \pm 0,8$ kgni tashkil etdi, bunda farq 1,5 foizga teng bo'ldi.

1-jadval

6 yoshdagi MTT bolalarining pedagogik tajribadan oldingi jismoniy rivojlanishi va harakat tayyorgarligi ko'rsatkichlari ($x \pm \delta$)

Ko'rsatkichlar nomi	Guruhlar				Farq	
	Tajriba (n=24)		Nazorat (n=22)			
	X	δ	X	δ	farq	foiz
Tana uzunligi,(sm)	115,6	3,2	115,4	2,8	0,2	0,2
Tana og'irligi, (kg)	19,2	0,9	19,5	0,8	0,3	1,5
KQA, (sm)	55,6	1,5	55,7	1,4	0,1	0,2
10 m ga yugurish, (sek)	3,0	0,1	2,9	0,2	0,1	3,3
30 m ga yugurish, (sek)	8,6	0,4	8,7	0,3	0,1	1,1
300 m ga yugurish, (daq)	1:55	0,1	1:59	0,2	0,04	2,5
Turgan joyidan uzunlikka sakrash, (sm)	81,8	10,6	80	8,4	1,8	2,2
Tennis to'pini uzoqqa uloqtirish, (m)	8,1	1,4	8,2	1,2	0,1	1,2
Yotib tayanib, qo'llarni bukib-yozish, (marta)	3,7	1,2	3,5	1,0	0,2	5,4
Umumiy egiluvchanlik, (sm)	2,8	1,1	2,6	0,7	0,2	7,1

Izoh: KQA organizmning tinch holatda o'lchash natijasi olingan, umumiy egiluvchanlik ko'rsatkichi esa quyidagicha o'lchandi, bolalar stul ustiga chiqib tizzalarni bukmagan holda qo'llarini stuldan pastga tushurishdi. Stul taxtasidan pastga + natija, taxtaga yetmagan holat - natija bilan baholandi.

Ushbu yosh guruhi bolalarining respirator imkoniyatlarini baholashga qaratilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, 6 yoshdagi bolalarda ko'krak qafasi aylanasi o'rtacha $55,6 \pm 1,5$ smga teng bo'ldi, nazorat guruhi bolalarida esa ishonchli bo'lmagan 0,2 foizga teng farq aniqlandi.

Maktabgacha ta'lim muassasalarining 6 yoshdagi katta yosh guruhi tarbiyalanuvchilarining harakat imkoniyatlarini baholash maqsadida ikkala tadqiqot guruhlarida tezlik imkoniyatlarining dastlabki ko'rsatkichlarini aniqlash uchun pedagogik testlash o'tkazildi.

Tajriba guruhidagi 6 yoshdagi bolalarda tezlik qobiliyatlarini pedagogik testlashda 10 m ga yugurish o'rtacha $3,0 \pm 0,1$ sekund natija bilan bajarildi, bunda nazorat guruhi bolalari o'rtacha 0,1 sekund (3,3 foiz)ga yuqoriroq natija ko'rsatishdi.

30 m ga yugurishda 6 yoshdagi tajriba guruhi bolalari $8,6 \pm 0,4$ sekund natijaga erishdilar, nazorat guruhidagi bolalar esa ushbu masofaga yugurishda 0,1 sekundga yaxshiroq natija ko'rsatishdi, ya'ni o'rtacha $8,7 \pm 0,3$ sekund (1,1 foiz) ni tashkil qildi.

Maktabgacha ta'lim muassasalari bolalari uchun 300 m ga yugurish chidamlilik sifati bilan bog'liq harakat vazifalarini bajarishga bo'lgan harakat hamda funksional tayyorgarlik darajasini aks ettiradi. Bu testda tajriba guruhidagi bolalar o'rtacha $1:55 \pm 0,1$ daqiqa natija ko'rsatishdi, nazorat guruhi bolalari esa $1:59 \pm 0,2$ daqiqa natijaga ega bo'lib, bu 2,5 foizni tashkil qildi.

Turgan joyidan uzunlikka sakrash bolalarning harakat ko'nikmalari va jismoniy sifatlarini egallab olganliklari darajasini ifodalovchi universal tezkor-kuch mashqi hisoblanadi. 6 yoshdagi tajriba guruhi o'g'il bolalarida ushbu test natijalari $81,8 \pm 10,6$ smni tashkil qildi, nazorat guruhida esa o'rtacha natija $80 \pm 8,4$ smni tashkil qildi, bunda farq 2,2 foizga teng bo'ldi. Bu tadqiqot guruhlarida tezlik-kuch qobiliyatlarining dastlabki darajasi bir xilligidan dalolat beradi.

Uloqtirishlar murakkab texnikali mashq hisoblanadi, ular ushbu yosh guruhidagi bolalardan jismoniy sifatlar va texnik tayyorgarlikni namoyon qilishni taqozo etadi, hayotiy muhim amaliy ahamiyatga ega bo'lib, bolalarning erta rivojlanish bosqichidanoq rivojlantirilishi zarur.

Pedagogik tajribani o'tkazishdan oldin tajriba guruhidagi olti yoshli o'g'il bolalar tennis koptogini uloqtirishda $8,1 \pm 1,4$ m natijaga erishishdi, nazorat guruhi bolalari esa ulardan 0,1 m (1,2 foiz) ga ortda qolishdi.

Yotib tayanib, ko'llarni bukib-yozish testi natijalari bo'yicha 6 yoshdagi bolalarning kuch imkoniyatlarini pedagogik testlashda o'rtacha natija tajriba guruhida $3,7 \pm 1,2$ martani, nazorat guruhida esa o'rtacha $3,5 \pm 1,0$ martani tashkil qildi, farq 5,4 foizga teng bo'ldi.

O'rindiqlarda turib oldinga egilish testida tajriba guruhidagi bolalarning o'rtacha natijasi $2,8 \pm 1,1$ smni, nazorat guruhida esa $2,6 \pm 0,7$ smni tashkil qildi, bunda farq 7,1 foizga teng bo'ldi.

Maktabgacha ta'lim muassasalaridagi katta guruh tarbiyalanuvchilarining dastlabki ko'rsatkichlarining monitoring tahlili shuni ko'rsatadiki, pedagogik tajribagacha tajriba hamda nazorat guruhlari bolalarida o'rganilayotgan parametrlar bo'yicha tekshirilayotgan ko'rsatkichlar darajasi ishonchli tarzda bir xil bo'ldi.

Maktabgacha ta'lim muassasalaridagi katta guruh tarbiyalanuvchilari va umumta'lim maktablari boshlang'ich sinf o'quvchilarining jismoniy holati uzviyligini aniqlash maqsadida xuddi shunday testlash 7 yoshdagi ikkita guruh: tajriba va nazorat guruhlari bolalarida o'tkazilib, o'rganilayotgan ko'rsatkichlarning dastlabki natijalari aniqlandi.

Umumta'lim maktabida tahsil olishni boshlagan 7 yoshdagi bolalar tajriba guruhida o'g'il bolalarning tana uzunligi o'rtacha $122,8 \pm 1,8$ smni, nazorat guruhida esa $122,2 \pm 2,3$ smni tashkil etdi, bu 0,5 foizga farq borligini ko'rsatdi.

Tajriba guruhidagi o'g'il bolalarning tana og'irligi o'rtacha $20,7 \pm 1,2$ kgga teng bo'ldi, nazorat guruhida vazn ko'rsatkichi o'rtacha ko'rsatkichdan 2,4 foizga biroz oshiqroq bo'ldi va o'rtacha $21,2 \pm 1,9$ kgni tashkil qildi.

Ko'krak qafasi aylanasi birinchi sinf o'quvchilarida o'rtacha $57,3 \pm 1,1$ smga teng bo'ldi, bu ko'rsatkich nazorat guruhida biroz yuqoriroq bo'lib, o'rtacha $57,1 \pm 1,2$ smni tashkil etdi va 0,4 foiz farq aniqlandi.

Maktabda o'qishga tayyorlanish bosqichida izchil o'zgarishlar dinamikasini aniqlash maqsadida birinchi sinf o'quvchilarining harakat imkoniyatlari dastlabki ko'rsatkichlarini olish uchun pedagogik testlash jarayonida 6 yoshdagi bolalarda olingan shunday ko'rsatkichlar o'rganildi.

7 yoshdan o'g'il bolalarda tezlik qobiliyatlarini pedagogik testlash amalga oshirilib, 10 m ga startdan yugurishdagi natijalar tajriba guruhidagi bolalarda o'rtacha $2,9 \pm 0,1$ sekundni, nazorat guruhida esa o'rtacha $2,8 \pm 0,1$ sekundni tashkil qildi, bunda farq 3,4 foizga teng bo'ldi (2-jadval).

2-javdal

7 yoshdagi maktab o'quvchilarining pedagogik tajribadan oldingi jismoniy rivojlanishi va harakat tayyorgarligi ko'rsatkichlari ($\bar{x} \pm \delta$)

Ko'rsatkichlar nomi	Guruhlar				Farq	
	Tajriba (n=24)		Nazorat (n=22)			
	X	δ	X	δ	farq	foiz
Tana uzunligi,(sm)	122,8	1,8	122,2	2,3	0,6	0,5
Tana og'irligi, (kg)	20,7	1,2	21,2	1,9	0,5	2,4
KQA, (sm)	57,3	1,1	57,1	1,2	0,2	0,4
10 m ga yugurish, (sek)	2,9	0,1	2,8	0,1	0,1	3,4
30 m ga yugurish, (sek)	7,7	0,3	7,8	0,2	0,1	1,3
300 m ga yugurish, (daq)	1:42	0,06	1:41	0,06	0,01	0,7
Turgan joyidan uzunlikka sakrash, (sm)	105,4	14,5	106,9	8,3	1,5	1,4
Tennis to'pini uzoqqa uloqtirish, (m)	11,5	1,6	11,9	1,7	0,4	3,4
Yotib tayanib, qo'llarni bukib-yozish, (marta)	4	1,7	3,9	1,3	0,1	2,5
Umumiy egiluvchanlik, (sm)	3,1	1,6	3,2	1,05	0,1	3,1

30 m masofani 7 yoshdagi bolalar o'rtacha $7,7 \pm 0,3$ sekund, nazorat guruhidagi bolalar esa o'rtacha $7,8 \pm 0,2$ sekund ichida bosib o'tdilar, farq 1,3 foizni tashkil etdi.

Chidamlilik harakat sifatini baholayotib, shu narsa aniqlandiki, tajriba guruhidagi birinchi sinf o'quvchilari 300 mga yugurishda $1:42\pm0,06$ daqiqa natija ko'rsatishdi, nazorat guruhi vakillarida esa o'rtacha natija $1:41\pm0,06$ daqiqaga to'g'ri keldi, 0,7 foiz farqni tashkil etdi.

Turgan joyidan uzunlikka sakrash tezkor-kuch qobiliyatlari omili sifatida ko'p jihatdan bolalarning koordinasion qobiliyatlari bilan bog'liqlikka ega. Turgan joyidan uzunlikka sakrashda 7 yoshdagi o'quvchilarning dastlabki ko'rsatkichlari $105,4\pm14,5$ smga teng bo'lgan bo'lsa, nazorat guruhida ushbu testda natija $106,9\pm8,3$ smga teng bo'ldi va 1,4 foizga yuqoriroq natijaga erishildi.

Uloqtirishlar me'yoriy talab sifatida umumta'lim maktablarining barcha jismoniy tarbiya o'quv dasturlaridan o'rin olgan va bolalardan jismoniy sifatlar hamda texnik tayyorgarlikni namoyon qilishni nazarda tutadi. Harakat imkoniyatlarini testlashda tennis koptogini uloqtirishda o'rtacha $11,5\pm1,6$ m natija olingan bo'lib, bunda nazorat guruhi o'quvchilari $11,9\pm1,7$ m natijaga erishishdi, farq 3,4 foizga teng bo'ldi.

Tajriba guruhining 7 yoshdagi bolalarida kuch imkoniyatlarining dastlabki ko'rsatkichlarini baholay turib, shu narsa aniqlandiki, yotib tayanib, ko'llarni bukib-yozish testini bajarishda o'rtacha natija tajriba guruhida $4\pm1,7$ martaga, nazorat guruhida esa biroz pastroq – $3,9\pm1,3$ martaga teng bo'ldi, bu 2,5 foiz farqni tashkil qildi.

Birinchi sinf o'quvchilarining umumiy egiluvchanligini o'rindiqla turgan holda oldinga egilish testi bo'yicha baholay turib, natija tajriba guruhida $3,1\pm1,6$ smga, nazorat guruhida esa $3,2\pm1,1$ smga teng ekanligi aniqlandi, ular tajriba guruhidagi tengdoshlaridan 3,1 foizga ustun ekanliklari qayd qilindi.

Umumta'lim maktablari boshlang'ich sinf o'quvchilarining jismoniy rivojlanishi va harakat tayyorgarligi bo'yicha ikkala tadqiqot guruhlarida olingan dastlabki natijalar shuni ko'rsatdiki, o'rganilayotgan parametrlar bo'yicha ishonchli farqlar aniqlanmadi, bu pedagogik tajribani ishonchli tarzda muvaffaqiyatli o'tkazish uchun asos bo'la oladi.

Maktabgacha ta'lim muassasalarining katta yosh guruhidagi bolalar va umumta'lim maktabining kichik sinf o'quvchilari jismoniy rivojlanishi hamda harakat tayyorgarligi bo'yicha 10 ta testda tekshiriluvchilar orasida ishonchli farqlar aniqlanmadi. Tajriba hamda nazorat guruhlarida ko'rsatkichlarining qiyosiy tahlili ular bir xil ekanligini ko'rsatdi.

Maktabgacha katta yoshdan kichik maktab yoshigacha bo'lgan bosqichda bolalarni jismoniy tarbiyalash uzviyligini aniqlashga qaratilgan pedagogik tajriba o'tkazish maqsadida bolalar jismoniy holatining dastlabki tavsifi o'rganildi.


Jismoniy holatning dastlabki ko'rsatkichlarini olish maqsadida o'tkazilgan pedagogik tajriba boshida maktabgacha ta'lim muassasalarining 6 yoshdagi bolalaridan iborat ikkita guruhlar (tajriba va nazorat guruhlar) tanlab olindi, shuningdek, umumta'lim maktablarining birinchi sinfida tahsil oluvchi 7 yoshdagi o'g'il bolalar shu tarzda tanlab olindi. Ikkala yosh guruhlaridagi dastlabki ko'rsatkichlar 5 - va 6 – jadvallarda berilgan.

Tekshirilayotgan bolalar kontingentining pedagogik tajriba o'tkazishdan oldingi jismoniy holatining dastlabki ko'rsatkichlarini birma-bir taqqoslash maqsadida o'rganilayotgan ko'rsatkichlarning qiyosiy tahlili amalga oshirildi. Uning natijalari 2-rasmda berilgan.

6 yoshdagi bolalarning tana og'irligi 19,2 kgga teng bo'lgan bo'lsa, 7 yoshdagi maktab o'quvchilarida bu natija 1,5 kg (7,2 foiz) ga yuqoriroq bo'ldi.

7 yoshdagi bolalar 10 m masofaga yugurishda tezlik imkoniyatlari bo'yicha 6 yoshdagi bolalarning natijalaridan 3,3 foizga ustunroq bo'ldilar, biroq 30 mga yugurishda 7 yoshdagi o'quvchilar maktabgacha yoshdagi bolalardan 0,9 sekundga yaxshiroq natija ko'rsatishdi, bu 10,5 foizga mos keldi. 300 mga yugurish natijalari 6 yoshdagi bolalarda $1:55$ daqiqani tashkil qildi, 7 yoshdagi bolalar esa bu test bo'yicha 8,4 foiz ustunlikka ega bo'ldilar.

Turgan joyidan uzunlikka sakrash testi orqali baholanuvchi tezkor-kuch imkoniyatlari maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarida o'rtacha 81,8 smni tashkil qilgan bo'lsa, birinchi sinf o'quvchilari 105,4 sm natija ko'rsatishdi, ular tarbiyalanuvchilardan 22,4 foiz yuqoriroq natija ko'rsatishdi.



2-rasm. Maktabgacha katta yoshdagi va kichik maktab yoshidagi bolalarning pedagogik tajribadan oldingi jismoniy holatining dastlabki ko'rsatkichlari qiyosiy tavsifi ($\bar{x} \pm \delta$)

Tennis to'pini uzoqqa uloqtirishdagi natija 6 yoshdagi tarbiyalanuvchilarda 8,1 m.ni tashkil qildi, 7 yoshli birinchi sinf o'quvchilari esa 3,4 mga yaxshiroq natija ko'rsatishdi, 29,5 foizga yaxshilanish aniqlandi.

Kuch qobiliyatlari ko'rsatkichlarida jiddiy farqlar aniqlanmadi, 6 yoshdagi bolalarda 3,7 martaga teng bo'ldi, 7 yoshda esa natija biroz yaxshilanib, 0,3 martaga o'sishni ko'rsatdi.

Maktabgacha yoshdagi katta guruh tarbiyalanuvchilarida umumiy egiluvchanlik 2,8 smni tashkil qildi, umumta'lim maktabining birinchi sinf o'quvchilarida esa ushbu ko'rsatkich 3,1 smgacha oshdi.

O'quv yili boshida olingan bolalarning jismoniy holati boshlang'ich ko'rsatkichlarining qiyosiy tahlili shuni aniqlashga imkon berdiki, tekshirilgan kontingentning dastlabki jismoniy qobiliyatlari va harakat tayyorgarligi darajasi pedagogik tajribadan oldin qoniqarli darajada bo'ldi.

XULOSA

Tadqiqot doirasida ishlab chiqilgan "Model" yaxlit tavsifga ega bo'lib, uni tashkil etuvchi bloklari o'zaro aloqadorlikda pedagogika yo'nalishi talablarida bolalarda jismoniy sifatlarini rivojlantirishda, jismoniy faollik darajasini oshirishda yuqori natijaga erishishni ta'minlaydi.

Ta'lim jarayonida biz tomonimizdan ishlab chiqilgan 6 va 7 yoshdagi bolalarda harakat sifatlarini takomillashtirishga qaratilgan innovasion uslubiyatni hamda harakat tayyorgarligini baholash platformasining qo'llanilishi maktabgacha ta'lim tashkilotlari katta yosh guruhi tarbiyalanuvchilari va 1-sinf o'quvchilarining harakat imkoniyatlarini pedagogik testlash natijalari ishonchligini ta'minlash, ular tayyorgarligining kuchli va bo'sh tomonlari to'g'risidagi axborotni baholash va ushbu yosh kontingenti bilan o'tkaziladigan jismoniy tarbiya-sog'lomlashtirish ishlariga obyektiv tuzatishlar kiritish imkonini beradi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 30 sentyabrdagi "Maktabgacha ta'lim tizimini boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3955 sonli qarori.
2. Maxkamjonov K. M., Nasriddinov F. N. Maktabgacha va maktab yoshidagi bolalarning jismoniy rivojlanishi va tayyorgarligini takomillashtirish. – Toshkent, 1995. – 74 b.
3. Романова С.В., Прокопьев Н. Физическое развитие и физическое воспитание детей младшего школьного возраста, имеющих нарушения осанки: Учебно-метод. пособ. для студентов. – Тюмен: Экспресс, 2005. – 88 с.
4. Маншелей И.В. Педагогические модели физического воспитания. – М.: Теория и практика физической культуры, 2005. – 185 с.